
SAVOL BERING, JAVOB BERAMIZ



Savol bering, javob beramiz

Savol: Chorvachilik xo'jaliklariga xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilar uchun subsidiya oluvchiga qanday talablar belgilangan?

Javob: Chorvachilik xo'jaliklariga xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilar uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi nizomda subsidiya oluvchiga qo'yiladigan talablar belgilangan:

- Go'sht va sut yo'nalishidagi xo'jaliklarga xorijiy davlatlardan import qilinadigan nasldor qoramollarning bo'g'ozlik muddati 6 oygacha bo'lishi, tirik vazni 450 kilogrammdan va tug'ish vaqtida kutilayotgan yoshi 30 oydan ko'p bo'lmasligi hamda urug'lantirgan nasldor buqa to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlar mavjud bo'lishi lozim.

- Xorijiy davlatlardan import qilinadigan nasldor qo'y va echkilar quyidagi talablarga mos kelishi shart:

tana tuzilishi — mustahkamligi;

nasldor qo'y va echkilar yoshi 6 oylikdan kam bo'lmasligi.

- Subsidiya oluvchi xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilarni kamida 2 avlod olgungacha saqlashi shart.

F. Boboyev - So'x tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'rsatish markazi bosh yuriskonsulti

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2024-02-03 15:40:10